

**TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA
GRAFIK DASTURLAR VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH****Jumanova B.A.**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda va uning samaradorligini oshirishda qo'llashmumkin bo'lgan grafik dasturlarhaqida, ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishning afzalliklari haqida so'z brogan.*

Tayanch so'zlar: *Grafik dastur, multimedia, kompyuter texnologiyasi, animatsiya, ko'rgazmalilik*

Ta'lim tizimini isloh qilish, uni tubdan samarali bosqichga olib chiqish uchun tinimsiz tarzda zamonaviy texnologiya va innovatsiyalar joriy etilmoqda. Ushbu o'zgarishlar jamiyat va davlatning kelajagi bo'lgan o'quvchilarni yangi dunyoqarash bilan ulg'ayishi uchn xizmat qilishi shubhasiz. Odatda, kompyuter texnologiyalari deganda turli shakildagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Aslida ham shunday. Nafaqat qayta ishlash balki yangidan yaratish ham mumkun. Shu bilan birga multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika holatlarida ham kompyuter texnologiyalari haqida gapirish o'rinli deb hisoblaymiz.

Bugungi kun o'zgarishlarini inobatga olsak tasviriy san'at va chizmachilik fanlarida ham zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Masalan, kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv adabiyotlari va undagi grafik tasvirlar, bin ova inshoatlarning chizmalari, libos va interyer dizaynlari va boshqa ko'plab misollar keltirish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda tasviriy san'at va

muhandislik grafikasi darslarida multimediya vositalari yordamida o'tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bunday kompyuter texnologiyalaridan foydalanib ta'lim berish jarayoni o'quvchilarning bilim olishi va uning samaradorligini sezilarli darajada odimlatmoqda.

Ta'lim jarayoni to'laqonli bo'lishida, faqat o'qituvchi nutqi kamlik qiladi, shunda multimedia vositalari asosida ko'rgazmali qurollardan o'z vaqtida to'g'ri foydalanish ancha qulaylik yaratadi, ya'ni: "Yuz marta eshitgandan bir marata ko'rgan afzal", degan xalq maqoliga amal qilinadi.

Tasviriy san'at va chizmachilik darslari multimedia vositalari yordamida tashkil etilsa o'quvchilarning bilim saviyalarini oshirish, tasviriy san'at va chizmachilikni texnik ta'lim bilan bog'lashga erishgan bo'lamiz. Bundan tashqari grafik redaktor dasturi orqali o'quvchilarning tabiat va texnikani ko'rgazmali idrok etishga, predmetlarning tuzilishini va fazoviy munosabatlarini chuqurroq bilishga, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlar va hodisalarni sinchiklab o'rganishga yordam beradi.

Hozirgi kunda Davlat ta'lim standartlari asosida tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilardan quydagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari talab etilmoqda: grafik redaktor yordamida oddiy chizmalar yasash; kompyuter grafik redaktorining imkoniyatlaridan unumli foydalanish, chizma shriftlarini yozish, tekis va hajimli shakillar tasvirini yasash, oddiy geometric shakillarning proektsiyalarini tuzish. Berilgan jismning fazoviy holatini va uning shaklini o'zgartirish. Dars o'tishning bu usuli ham ta'lim sifatini oshiradi.

Har bir maktabda tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilari va yuqori sinf o'quvchilari uchun alohida topshiriqlar tanlab ulaming yoshiga mos keladigan san'at asarlarini kompyuter yordamida o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, rasmni tabiiy chizish bilan kompyuter orqali chizish o'rtasida farq mavjud. Rasm va chizmalarning o'lchamlari aniq, ranglari tiniq yorug' va soyalar aniq bilinadi. O'quvchi Kompyuter yordamida rasm chizish jarayonida avvalgi rassomlarning asarlarini o'zi uchun yangidan kashf etish mumkin.

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan zamonaviy dasturlardan "AVTO CAD", "3D MAX", "COREL DRAW", "PHOTOSHOP", "POVER POINT", "PAINT" kabi maxsus grafik dasturlar mavjud. Bu dasturlar asosida o'quvchilarga chizmaning qanday chizilishi nazariy jihatdan ularga yondoshish, o'quv jarayonida turli xil usullardan foydalanishlarini o'zlashtirish mumkin. Masalan:

1. Chiziq turlari, o'lcham qo'yish qoidalari. Qirqimlar va kesimlar bajarish, grafik redaktor yordamida oddiy geometrik shakillarning proektsiyalarini tuzish, berilgan jismning fazoviy holatini va uning shaklini o'zgartirish.

2. Mashinasozlik chizmalari, yig'ish chizmalari, rezbalami tasvirlash.

3. Qurilish chizmalari, Binoning fasadi, plani va qirqimi. Qurilish chizmalariga o'lchamlar qo'yishning o'ziga xosligi.

Ushbu jarayonda yangi chizmani kompyuterda dasturlash usuli rejalashtiruvchi kishini mustaqil va teran fikr yuritishga majbur etadi, eng muhimi, bu ishga bo'lgan havasni shakllantiradi. Tasviriy san'at va chizmachilik darsini o'tishda multimedia vositalaridan «Pover Point» dasturi orqali o'rganish juda foydalidir. Multimedia vositalaridan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi, dars jarayonida qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot berishga erishiladi. Umuman olganda, multimedia vositalarining o'quv amaliyotida qo'llanishi har tomonlama samarali natija beradi. Olingan bilim kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishi va uni amaliyotda qo'llash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at va chizmachilik darslarini sifatsamaradorligini oshirishda yangicha metod va kompyuter texnologiyalarining o'rni beqiyos. Shunday ekan ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy natijalarga erishishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmonov I. Valiev A. Valieva B. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent 2013 y.
2. D.Tojiboyeva, A. Yuldasheva Maxsus fanlami o'qitish meiodikasi. T. "Aloqachi" 2009.